

OLIV MAKTAB PEDAGOGIKASIDA TA'LIM SIFATI NAZORATINING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

*G'oyibnazarov Rahmatilla Paxumбоевич-
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi dotsenti, Pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
rahmatullagaipnazarov@gmail.com
Тел.: +998 88 750 87 50*

Аnnотatsiya

Ushbu maqolada – pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati innovatsion boshqaruvining samarali mexanizmlarini bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringi borasida sifati menejmenti munosabatni shakillantirish ahamiyatini aniqlash, ulardan ta'lim jarayonida maksimal samaradorlik bilan foydalanish usullarini taklif qilish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim menejmenti, ta'lim sifati, pedagogik faoliyat, zamonaviy pedagogik faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ ВУЗА

Абстрактный: В данной статье педагогика представляет собой разработку научно обоснованных рекомендаций по эффективным механизмам инновационного управления качеством образования в высших учебных заведениях. Также важно определить важность формирования качественного управленческого подхода к мониторингу качества образования в педагогических вузах и предложить методы их использования с максимальной эффективностью в образовательном процессе.

Ключевые слова: высшее образование, образовательный менеджмент, качество образования, педагогическая деятельность, современная педагогическая деятельность.

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF EDUCATION QUALITY CONTROL IN HIGHER SCHOOL PEDAGOGY

Abstract: This article is about developing scientifically based recommendations on effective mechanisms for innovative management of education quality in pedagogical higher educational institutions. It also aims to identify the importance of forming a quality management approach to monitoring the quality of education in pedagogical higher educational institutions, and to propose methods for using them with maximum efficiency in the educational process.

Keywords: higher education, educational management, quality of education, pedagogical activity, modern pedagogical activity.

KIRISH: Zamonaviy oliy ta'limning asosiy real talablaridan biri o'qituvchilarning kasbiy sifatleri va yetarlicha malakaga ega bo'lishidir. Maqolada ta'lim menejmentidagi innovatsiyalar va zamonaviy pedagogik faoliyat haqida barqaror hamda hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflarni yanada takomillashtirish zarurligi tahlil etilgan. Qolavesa, professor-o'qituvchilarning zamonaviy faoliyatga tayyorligining muhim ijtimoiy va kasbiy sifatleri, nafaqat ta'lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarining talab etilganligi bilan ham bog'liqdir.

Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringi innovatsion boshqaruvining samarali mexanizmlarini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Oliy ta'lim muassasalarida o'zlari tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish, uni takomillashtirishga bo'lgan intilish obyektiv zaruratga aylanib qolmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida sifat menejmentini joriy etish borasida mazkur yo'nalishda hozirgi kunlarga shakllangan xorijiy tajribalarni o'rganib,

ularning ilg'or g'oyalarini tatbiq etgan holda mamlakat oliy ta'lim tizimining sifat menejmentini shakllantirish muhim masaladir. Ta'lim faoliyati sifatini boshqarishning amaldagi yondashuvlar va amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarini, o'z mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarini bajarishga, o'qitish jarayonini tashkillashtirishga qo'yilgan rasmiy talablarning nazorati va o'quvchilarning shahodatlanishi asosida ta'lim berish sifatini baholashga ko'proq yo'nalgan. oliy ta'lim muassasalari ta'lim–tarbiya sifatining holati, uning monitoringi axborot–kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda xolis baholansa, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etgan omillar o'z vaqtida korreksiylanib, istiqbolga yo'naltirilgan chora–tadbirlarni amalga oshirishda katta imkoniyatlarga ega ekani aniqlandi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ularning oliy ma'lumotli yuqori raqobatbardoshlikka ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasidagi ta'lim faoliyati sifatini oshirish usullarini joriy qilishda hozirgi zamon sharoitlaridagi oliy kasbiy ta'limning sifatiga yondashuvlar bo'yicha yuzaga kelgan tendensiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Chunki, O'zbekistonda ta'lim sohasini isloh qilish davomida shakllantiriladigan zamonaviy, modernizatsiyalashgan oliy ta'lim tizimi xalqaro oliy ta'lim xizmatlar maydonida o'zining munosib o'rnini topishi shu islohotlar oldiga qo'yilgan vazifalardan biri sanaladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari yosh avlodning uzluksiz ta'lim olishini ta'minlovchi tizimda yetakchi o'rinni mustahkam egallaganidir. Ularning faoliyati iqtisodiyot, texnika-texnologiyalar, ilm-fan va umuman olganda butun jamiyatdagi madaniy-ma'rifiy turmushning barcha sohalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir.

Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ular ko'rsatadigan oliy ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish tizimining rivojlantirilishi milliy iqtisodiyot va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki beruvchi kuchga aylanmoqda.

So'nggi davrlarda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlarini tasarruf etish va uning sifatini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratishga keng qamrovli yondashuvlar va ularning amalda joriy etilishi tendensiyalari kuzatilmoqda[1]. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion yo'lga o'tkazish bo'yicha bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablardan birmuncha ortda qolmoqda. Shu munosabat bilan ayrim ilg'or oliy ta'lim muassasalarining bu boradagi sa'y-harakatlarni amalga oshirishga bel bog'laganliklari va ularning mamlakat hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganliklari oliy ta'lim sifatini boshqarish amaliyotida yangicha yondashuvlarning keng joriy etilishiga imkon berdi. Ayni paytda oliy ta'lim tizimini va jumladan, ta'lim sifatini boshqarishning kelgusi modernizatsiyalanish jarayonlari unda keng ko'lamli, tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun katta kuch-g'ayratlar sarflanishini talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Oliy ta'lim tizimida so'ngi yillarda sifatli kadrlar tayyorlash jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan iqtisodiyotning barcha bo'g'inlari uchun kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ko'plab sohalarda jadal rivojlanishlar, yangi yangi g'oyalar, ish o'rinlari va monomarkazlar faoliyati samarali yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida farmon, qarorlar ishlab chiqildi [2]. Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilish yuzasidan ham bir qator ishlar amalga oshirilib, hozirgi kunda respublikamizda 166 ta oliy ta'lim muassasasida (shundan, 106 ta davlat) kadr tayyorlanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[2]gi PQ-60-son qarori qabulqilinganligi ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari berilayotgan

imkoniyatlardan yana biridir. Buning natijasi akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan qator institut va universitetlarga quyidagi vakolatlar berildi: a) akademik mustaqillik sohasida: o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash; bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash; doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish; doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash.

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida: faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish; xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshirishiga ruxsat berilganligi tayyorlayotgan kadrlari sifati, o'quv jarayonini tashkil etishning samarali uslublarini, ta'lim sifati monitoringini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi [3]. Bu o'z navbatida, bosqichma-bosqich barcha oliy ta'lim muassasalari akademik va moliyaviy mustaqillikka erishishi natijasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari ham kelajakda ushbu vakolatlariga ega bo'lganda, ta'lim sifatini yanada oshirish, monitoring ko'rsatkichlarini yaxshilanishini ta'minlashga maqsadida zamonaviy sifat menejmenti elementlaridan unumli foydalanishi zarur bo'ladi va buning natijasida kadrlar iste'molchilari talablariga javob beradigan professional kadrlar tayyorlar ko'rsatkichlari yanada oshadi. O'quv-uslubiy jarayonda zamonaviy faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi [4].

Ta'lim menejmentidagi innovatsiyalar va zamonaviy pedagogik faoliyat haqida

barqaror hamda hammaga ma’qul bo’lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflarni yanada takomillashtirish zarurligini e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan

biri ta’limga yo’naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o’rtasidagi qiyinchilik bilan yengib

o’tiladigan uzilishlardir. O’qituvchi zamonaviy faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo’llash hamda ommalashtirishda ishtirok

etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o’zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta

bilishi kerak. Ta’lim jarayonining “zamonaviy” texnologiyalari talabani nafaqat ijtimoiy, kasbiy bilimlar bilan ta’minlaydi, balki unda kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam beradi. Ta’lim jarayonining texnologiyasi quyidagi asosiy

maqsadlarga erishishga xizmat qiladi: davlat manfaatlariga mos holda, talabani bo’lajak mutaxassis sifatida tayyorlaydi; talabani jamiyat a’zosi sifatida shakllantirib,

ijtimoiy tajriba, qadriyatlarni, me’yorlarni anglagan jamiyat manfaatlarini bilan hamohang faoliyat ko’rsatuvchi kadrni tayyorlaydi; talabani faol, tashabbuskor, kreativ fikrlashga qodir shaxs sifatida rivojlantiradi [5]. Shuni ta’kidlab o’tish lozimki, kadrlar masalasi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo’lib qolmoqda. Chunki kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa’y-harakatlarimiz kutilgan natijalarni bermaydi, hayotimiz, ma’naviyatimiz esa o’zgarishi qiyin bo’ladi.

Oliy ta’lim muassasalari fakultetlarida professor-o’qituvchilar yosh o’qituvchilarga

ta’lim berish sirlarini o’rgatishi, o’qitish uslublarini qo’llash bo’yicha maslahatlar berishi, interaktiv o’qitish usullarini namoyon qilishi zarur. Natijada o’qituvchilar quyidagilarga erishadilar: o’z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish,

kasbga bo'lgan qarashni o'zgartirish; pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini namoyon

etish; o'qituvchilarda kasbiy mas'uliyat va fidoyilikni rivojlantiradi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kun nafaqat yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni, balki milliy uyg'onish va umumbashariy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida, vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik ideallariga sadoqat ruhida ta'lim olgan va tarbiyalangan mutaxassislarni tayyorlashni

taqozo etadi. Bugungi kunda deyarli ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida ularning

o'zlari tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish, uni takomillashtirishga bo'lgan intilish obyektiv zaruratga aylanib qolmoqda. Bunday intilish OTMLarida sifat menejmenti tizimini joriy qilish masalasiga olib keldi.

Oliy

ta'lim muassasalari faoliyatida sifat menejmentini joriy etish borasida mazkur yo'nalishda hozirgi kunlargacha shakllangan xorijiy tajribalarni o'rganib, ularning

ilg'or g'oyalarini tatbiq etgan holda mamlakat oliy ta'lim tizimining sifat menejmentini shakllantirish muhim masaladir. Ta'lim faoliyati sifatini boshqarishning amaldagi yondashuvlar va amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki,

ta'lim muassasalarini, o'z mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarini bajarishga, o'qitish jarayonini tashkillashtirishga qo'yilgan rasmiy talablarning nazorati va o'quvchilarning shahodatlanishi asosida ta'lim berish sifatini

baholashga ko'proq yo'nalgan[7].

XULOSA: Oliy ta'lim muassasalarining sifat menejmenti tizimini joriy qilish obyektlari sifatidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari qatoriga boshqarishning uchta darajasini – universitet, fakultet, kafedraning tarmoqlangan tashkiliy tuzilmasi

mavjudligini, ta'minotchilar va ichki iste'molchilarning ko'p sonli miqdori, oliy ta'lim muassasalari ichki hujjatlarining ko'p miqdordaligini kiritishimiz mumkin. Ta'lim jarayonining subyektlari sifatida iste'molchilar (abituriyentlar, talabalar, otaonalar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari), oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,

bandlik xizmatlari, ommaviy axborot vositalari, o'rta maxsus o'quv muassasalari, oliy ta'lim muassasasi xodimlari qaraladi. Bu umumiy tavsiflar xizmat ko'rsatish jarayonining ishlab chiqarish jarayonidan prinsipial farqini bildiradi va ta'lim xizmatlari sohasi uchun sifatni boshqarish tizimini maxsus talqin qilishga olib keladi.

Xorijiy mutaxassislarning fikricha, chet el ta'lim muassasalarining o'z sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlash uchun muayyan vaqt

hamda katta mablag' sarflashi bejiz emas. Chunki bu bilan obro'li xorijiy iqtisodiyot

sektorlari uchun yuqori raqobatbardosh malakali xodimlarni yetkazib berish hajmini

oshirish bilan ular ham yaxshigina mablag'larga ega bo'ladilar, ham o'z faoliyati samaradorligini ta'minlaydilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarori
3. Bozorov Z.Y. "Ta'lim sifati menejmenti va unga bo'lgan yondashuvlar" research and education, Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789, ISSN: 2181-3191, Volume 2, Issue 5, 2023

4. Денякина Л.И. Педагогическая диагностика как основа движущей сил педагогического коллектива. -М.: Радуга, 2017. -С. 186.
5. Ковалев Л.Ф. Теория и практика моделирования региональной системы оценки качества обучения (На примере системы общего среднего образования) Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01: Великий Новгород, 2004. 199 с.;
6. Bozorov Z.Y. "Geometrik masalalarni yechishda koordinatavektor usulidan foydalanish" Academic Research in Educational Sciences, Scientific Journal Impact Factor (SJIF), 2021: 5.723, 11, 2021
7. Bozorov Z.Y. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. "Mug'allim ham uzliksiz bilimlendirio" ilmiy metodologik jurnali. 2023 yil 5/2 son. 146-150 bet.